



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2026-yil 25-aprel

39-4-0-F/26

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2026-yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash, bu borada barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, shuningdek, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2026-yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar rahbarlik va amalda ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosarlari va o'rinbosarlari, tuman (shahar) lar hokimlari, barcha darajadagi tashkilotlar rahbarlarining aholi murojaatlarida ko'tarilgan masalalarni ijobiy hal qilish bilan bir qatorda, muammoning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yilsin.

3. Quyidagilar:

viloyatda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha viloyat hokimligi hamda mutasaddi viloyat tashkilotlarining rahbarlarini tuman (shahar) larga biriktirish jadvali **1-ilovaga** va ularning vazifalari **2-ilovaga** muvofiq;

Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yuzasidan "Qarshi shahri tajribasi"ni yaratish bo'yicha viloyat shtabining tarkibi **3-ilovaga** va uning vazifalari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha tuman (shahar) larga biriktirilgan viloyat hokimligi hamda mutasaddi viloyat tashkilotlarining rahbarlari:

uch kun muddatda biriktirilgan tuman (shahar)larda hokimlar bilan birgalikda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirsin hamda tuman (shahar) shtabi faoliyatini yo'lga qo'ysin;

har haftada kamida bir marta biriktirilgan tuman (shahar) larga borgan holda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish jarayonlarini o'rganib, muvofiqlashtirib borsin;

ushbu Farmoyishning **2-ilovasiga** muvofiq, biriktirilgan tuman (shahar) larda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlasin;

muntazam ravishda biriktirilgan tuman (shahar) larda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini muvofiqlashtirib, har haftada kamida bir marta mas'ul rahbarlar ishtirokida tanqidiy muhokama qilsin hamda murojaatlar ko'paygan mahallalarda shaxsiy va sayyor qabullarni o'tkazib borsin;

har hafta yakunida aholi murojaatlarida ko'tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgan holda viloyat va respublika darajasida hal etiladigan masalalar yuzasidan yozma ravishda viloyat hokimiga takliflar hamda haftalik hisobotlarni kiritib borsin.

5. Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yuzasidan "Qashqadaryo viloyati tajribasi"ni yaratish bo'yicha viloyat shtabi (rahbari A.Qodirov):

alohida topshiriq bo'lgunga qadar viloyat shtabining aholi murojaatlar bilan ishlash tizimi yuzasidan "Qashqadaryo viloyati tajribasi"ni yaratishga qaratilgan faoliyatini samarali tashkillashtirib borsin;

ushbu Farmoyishning **4-ilovasiga** muvofiq, viloyat shtabining zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlasin;

muntazam ravishda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirish bo'yicha tuman (shahar) lar shtablari faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga zarur uslubiy va amaliy yordamlarni ko'rsatib borsin;

har haftada kamida bir marta aholi murojaatlari ko'payib borayotgan, ularni ijobiy hal etish choralari ko'rmayotgan hamda ko'rib chiqish yuzasidan qonunchilikda belgilangan muddatlarning buzilishiga yo'l qo'yilayotgan mutasaddi viloyat va tuman (shahar) lar tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlash tizimini tanqidiy o'rganishlarni tashkillashtirib, jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan mas'ullarga nisbatan intizomiy yoki ma'muriy jazolarni qo'llash yuzasidan viloyat hokimiga takliflar kiritib borsin;

har hafta yakunida viloyatda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammo va kamchiliklar hamda takliflar o'z aksini topgan haftalik hisobotlarni, shuningdek, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgan holda viloyat va respublika darajasida hal etiladigan masalalar yuzasidan yozma ravishda viloyat hokimiga takliflarni kiritib borsin.

6. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosarlari va o'rinbosarlari, viloyat tashkilotlari va tuman (shahar) lar hokimlari:

muntazam ravishda faoliyat yo'nalishlariga oid hamda mutasaddilik qilinadigan tashkilotlar faoliyatiga oid kelib tushgan aholi murojaatlarini shaxsan nazorat qilsin va ijobiy hal etilishini ta'minlash choralari ko'rsin;

har haftada kamida bir marotaba belgilangan jadvallar asosida shaxsiy, sayyor va ommaviy qabullarni, ayniqsa birinchi navbatda murojaatlar ko'paygan hamda takroriy va jamoaviy murojaatlar kelib tushgan mahallalarda o'tkazib borsin;

faoliyat yo'nalishlariga oid hamda mutasaddilik qilinadigan tashkilotlar faoliyatiga oid kelib tushgan aholi murojaatlarida ko'tarilgan, ammo hal etilmagan muammoli masalalarni shaxsan joyiga chiqqan holda o'rganib borsin hamda ijobiy hal etilishini ta'minlasin;

qonuniy yechimini topmagan takroriy va jamoaviy murojaatlarning har biri bo'yicha qaytadan alohida o'rganishlarni olib borish va hal etish choralari ko'rib borsin.

7. Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasi (O.Poyonov), viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (F.Muhammadiyev), viloyat Markaziy bank bosh boshqarmasi (D.Ubaydullayev), viloyat soliq boshqarmasi (S. Eshmatov), Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi (N.Ismanov), Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining viloyat filliali (J.Tursunov), tuman (shahar) lar hokimlari bilan birgalikda:

bir oy muddatda "mahalla yettiliklari" bilan hamkorlikda aliment to'lovchilarning daromadlarini aniqlash, ularni shakllantirish va oshirib borish maqsadida ularning bandligini to'liq ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, xorijda ishlash istagida bo'lganlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida chet el davlatlaridagi yuqori daromadli ishlarga yuborishga ko'maklashish bo'yicha "Qashqadaryo viloyati tajribasi" ni yaratsin hamda ushbu tajribaning barqarorligini ta'minlash choralari ko'rib borsin.

Viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi (N.Ismanov) bilan birgalikda daromadini yashirib kelayotgan aliment to'lovchilarning faoliyatini "soyadan" chiqarish choralari ko'rsin.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Qodirov) viloyat investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari (U.Jo‘rayev) viloyat Markaziy bank bosh boshqarmasi (D.Ubaydullayev) tuman (shahar)lar hokimlari bilan birgalikda:

2026-yil 15-mayga qadar viloyatda xodimlariga oylik ish haqlarini to‘lamayotgan tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilib, xomashyo, aylanma mablag‘, infratuzilma, bozor topish bilan bog‘liq masalalarni hal qilib berish, oylikni asossiz bermayotgan korxonalardan esa o‘rnatilgan tartibda majburiy undirish choralarini ko‘rsin.

9. Viloyat hokimining o‘rinbosari (M.Azizov) tuman (shahar) lar hokimlari bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda tuman (shahar)larda ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatuvchi boshqaruv servis kompaniyalarining faoliyatidannorozilik bildirilgan murojaatlarni mahallalarga shaxsan borgan hamda aholi va boshqaruv kompaniyalari bilan uchrashgan holda, muammolarning sabablarini aniqlasin hamda bartaraf etish choralarini ko‘rsin.

Bunda puldan qiynalayotgan boshqaruv kompaniyalariga aylanma mablag‘larni topib berish, elektr, yo‘l, suv va kanalizatsiya bilan bog‘liq muammolarni investitsiya dasturiga qo‘shimcha kiritish, Majburiy ijro byurosi bilan boshqaruv kompaniyalarining debitor qarzdorligini undirishga ko‘maklashish ishlarini tashkil etsin.

10. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Qodirov, viloyat hokimining o‘rinbosari (M.Azizov), tuman (shahar) lar hokimlari, tijorat banklari rahbarlari bilan birgalikda:

o‘n kun muddatda uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarning egalari bilan birma-bir muloqot o‘tkazgan holda, ularga yangi qurilayotgan uy-joylarni taklif etish, kredit, subsidiya bo‘yicha masalalarni tezkorlik bilan hal qilib berish choralarini ko‘rsin.

11. Viloyat adliya boshqarmasi (S.Nuriyev), viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (M.Qurbonov), viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi (Z.Aminova), Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov), viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi (U.Oripov) tuman (shahar) lar hokimlari bilan birgalikda:

bir oy muddatda viloyatdagi barcha mahallalarda tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani olmagan bolalarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish orqali ularga bunday hujjatni rasmiylashtirish hamda belgilangan tartibda tegishincha maktabgacha ta‘lim muassasalari va umumta‘lim maktablariga joylashtirilishini ta‘minlasin.

12. Viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi (A.Ismoilov) Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining viloyat bo‘limi (K.Karomova) va boshqa mutasaddi viloyat tashkilotlari hamda oliy ta‘lim muassasaari bilan birgalikda:

joriy yil 20-apreldan boshlab ichki ishlar idoralari xodimlarini aholi muammolarini eshitish, profilaktika inspektorlari va tergovchilarning kasbiy va muomala madaniyatini oshirish bo'yicha o'qitish ishlarini tizimli ravishda tashkil etib borsin.

Bunda haftaning bir kunini "viloyatda yosh tergovchilar, profilaktika inspektori, yo'l va post-patrul xodimlarini o'qitish, muomala madaniyatini o'rgatish kuni" deb belgilansin.

Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasi (O.Poyonov), viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov), viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (M.Qurbonov), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), viloyat elektr tarmoqlari" AJ (A. Muzapov), viloyat "Suvta'minot" AJ (B.Shoyimov), "Hududgaz" AJ (U.Ernazarov) yuqoridagi tartib asosida o'z tizimidagi xodimlarini **o'qitish va ularning muomala madaniyatini o'rgatish tizimini yo'lga qo'ysin.**

13. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (A.Qodirov), o'rinbosarlari A.Qobilov, Z.Aminova, viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (F.Muhammadiyev), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi (J.Raxmonqulov), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (U.Oripov), viloyat Markaziy bank boshqarmasi (D.Ubaydullayev) tuman (shahar) lar hokimlari bilan birgalikda:

bir oy muddatda nafaqa va moddiy yordam to'lash haqida murojaat qilgan ayollarning muammosini faqat nafaqa to'lash nuqtai-nazaridan emas, balki boshqa qiyinchiliklari bilan birgalikda kompleks ravishda ko'rib chiqish bo'yicha viloyat tajribasini yaratish va barqarorligini ta'minlash bo'yicha barcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlasin.

Bunda:

tuman (shahar)lar **hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari** maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda ushbu ayollarning **farzandlarini bog'chaga joylashtirish;**

hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollari bilan **ishsiz ayollarni kasb-hunarlariga o'qitib, mahallaning o'zida ishlashiga sharoit qilib berish;**

tijorat banklari tomonidan yolg'iz onalarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun, tadbirkorlikni yo'lga qo'ygan ayollarga esa faoliyatini kengaytirish uchun imtiyozli kreditlar olishga ko'maklashish;

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan nogironligi bor ayollarga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishni yo'lga qo'yish ishlarining amalga oshirilishi ta'minlasin.

14. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosarlari va o‘rinbosarlari (A.Qodirov, U.Uzakov, M.Azizov, A.Qobilov, F.Kushakov, A.Zokirov, Z.Aminova) tuman (shahar) hokimlari bilan birgalikda:

muntazam ravishda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yuzasidan “Qarshi shahri tajribasi”ni yaratish va barqarorligini ta’minlash bo’yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlasin.

uch oy muddatda tuman (shahar)larda infratuzilmani yaxshilash bilan bog‘liq aholi murojaatlarida ko‘tarilgan barcha muammoli masalalarni to‘liq hal etish, zarur hollarda ushbu yo‘nalishga mahalliy byudjetdan zarur moliyaviy mablag‘larni ajratish choralarini ko‘rsin.

15. Tuman (shahar)lar hokimlari mutasaddi viloyat tashkilotlari bilan birgalikda:

uch kun muddatda tuman (shahar)larga biriktirilgan mas’ul rahbarlar bilan hamkorlikda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirsin hamda tuman (shahar) shtabi faoliyatini yo‘lga qo‘ysin;

muntazam ravishda infratuzilmani yaxshilash bilan bog‘liq kelib tushayotgan aholi murojaatlarini tahlil qilgan holda, ularni loyiha asosida hal etish choralarini ko‘rib borsin;

joriy yil 1-iyunga qadar tuman (shahar)larni **murojaatlar bilan ishlash bo’yicha namunali hududga aylantirish** choralarini ko‘rsin.

bir hafta muddatda ushbu farmoyishda belgilangan topshiriqlar hamda tuman (shahar)larni **murojaatlar tahlilidan kelib chiqqan holda, oylik** ish rejalarining ishlab chiqilishi va xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlarida tasdiqlatib, ijroga qaratish hamda aholiga murojaat qilish choralarini ko‘rsin.

16. Viloyatda xalq deputatlari mahalliy kengashlarning sessiyalarida aholi murojaatlari bilan ishlash holati to‘g‘risida viloyat hokimining o‘rinbosarlari va mutasaddi viloyat tashkilotlari rahbarlari, tuman (shahar)lar hokimlarining hisobotlarini eshitib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

17. Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi (O.Poyonov), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (F.Muhammadiyev), viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi (A.Ismoilov), viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi (Z.Aminova), viloyat soliq boshqarmasi (S.Eshmatov), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi (J.Raxmanqulov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (A.Ahmedov) tuman (shahar)lar hokimlari bilan birgalikda:

uch kun muddatda aholi murojaatlari bilan ishlash hamda ularda ko‘tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etishda “mahalla yettiliklari”ning mas’uliyati va javobgarligini oshirishga qaratilgan qo‘shma qaror va nizomni ishlab chiqib, ular faoliyatiga tadbiq etish choralarini ko‘rsin.

Bunda aholi murojaatlarida ko'tarilgan muammoli masalalar yuzasidan har bir soha kesimida "mahalla yettiliklari" tomonidan kyelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari, muddatlari, tartib-taomillari va hamkorlik yo'nalishlarini, tuman (shahar)lar bo'limlarining vazifalari aniq belgilab qo'yilishi ta'minlansin.

Qo'shma qaror va nizom talablari dastlab "mahalla yettiliklari"ga tushuntirgan holda, amaliyotga joriy etilishi belgilab qo'yilsin.

18. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyat bo'limi (K.Karomova), "Nuroni" jamg'armasining viloyat bo'limi (B.Raximov), Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi (O.Poyonov), viloyat madaniyat boshqarmasi (I.To'rayev) tuman (shahar)lar hokimlari bilan birgalikda:

muntazam ravishda reja-grafik asosida murojaatlar soni ko'payib borayotgan mahallalarda aholi o'rtasida manzilli va ta'sirchan ahamiyatga ega bo'lgan "shukronalik" tadbirlari hamda boshqa ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarni o'tkazib borsin.

19. Belgilab qo'yilsinki, viloyat hokimining barcha o'rinbosarlari, viloyat boshqarma, idora va tashkilotlar rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z muddatida, ijobiy hal etilishiga va ijrosini nazorat qilishga shaxsan mas'ul va javobgardirlar.

20. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-apreldagi
39-4-0-F/26-son farmoyishiga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyatida aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish
ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha
viloyat hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning
rahbarlarini tuman (shahar)larga biriktirish
JADVALI**

T/r	Mas'ul rahbarlarning lavozimi va F.I.Sh.	Biriktirilgan tuman (shahar) nomi
1.	M.Azimov- viloyat hokimi O.Poyonov -Majburiy ijro byurosining viloyat boshqarmasi boshlig'i	Qarshi shahri
2.	Z.Aminova-viloyat hokimining o'rinbosari	Shahrisabz shahri
3.	S.Eshmatov- viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i	G'uzor tumani
4.	A.Qobilov-viloyat hokimining o'rinbosari	Dehqonobod tumani
5.	M.Azizov -viloyat hokimining o'rinbosari	Qamashi tumani
6.	A.Qodirov - viloyat hokimining birinchi o'rinbosari	Qarshi tumani
7.	D.Ubaydullayev - Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi boshlig'i	Kasbi tumani
8.	F.Muhammadiyev - viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i.	Kitob tumani
9.	A.Ismoilov -viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i	Koson tumani
10.	U.Azimov-O'zbekiston Milliy gvardiyasi viloyat boshqarmasi boshlig'i	Ko'kdala tumani
11.	U.Uzakov- viloyat hokimining 1-o'rinbosari	Mirishkor tumani
12.	J.Raxmanqulov -ijtimoiy himoya Milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i	Muborak tumani
13.	B.Sayipov -viloyat prokurori	Nishon tumani
14.	A.Zakirov- viloyat hokimi o'rinbosari	Chiroqchi tumani
15.	F.Kushakov- viloyat hokimi o'rinbosari	Shahrisabz tumani
16.	S.Nuriyev-viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i	Yakkabog' tumani

Izoh: ushbu mas'ul rahbarlar boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-apreldagi
39-4-0-F/26-son farmoyishiga
2-ilova

**Qashqadaryo viloyatida aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish
ishlarini tashkillashtirish va muvofiqlashtirib borish bo'yicha tuman
(shahar)larga biriktirilgan viloyat hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlar
rahbarlarining
VAZIFALARI**

1. Biriktirilgan tuman (shahar)da aholi murojaatlar bilan ishlash tizimi bo'yicha tuman (shahar) shtabi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish.

2. Har haftada kamida bir marotaba biriktirilgan tuman (shahar)larga borgan holda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish jarayonlarini o'rganib, muvofiqlashtirib borish.

3. Aholi murojaatlari hamda ularning e'tirozlariga sabab bo'layotgan omillarni ijobiy hal etish choralarini ko'rish.

Bunda o'z yechimini topmagan murojaatlarni qaytadan o'rganishlarni tashkil etish va ijobiy hal etish darajasini oshirish.

4. Muntazam ravishda aholi, ayniqsa murojaatlar ko'paygan hamda takroriy va jamoaviy murojaatlar kelib tushgan mahallalarda ochiq muloqotlar hamda shaxsiy va sayyor qabullarni tashkil etish.

5. Aholi murojaatlarida, ayniqsa, birinchi navbatda takroriy va jamoaviy murojaatlarda ko'tarilgan muammoli masalalarni joyiga chiqqan holda o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish.

6. Mas'ullar tomonidan har bir murojaat bo'yicha belgilangan muddatlarda qonuniy va asosli javoblar taqdim etilishini ta'minlash.

7. Muntazam ravishda biriktirilgan tuman (shahar)da aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini muvofiqlashtirib, har haftada kamida bir marotaba mas'ul rahbarlar ishtirokida tanqidiy muhokama qilib, tuman (shahar)da murojaatlarni kamaytirish va ulardan xoli hududga aylantirishga qaratilgan manzilli ishlarni tashkillashtirib borish.

8. Har haftaning shanba kuni aholi murojaatlarida ko'tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgan holda viloyat va respublika darajasida hal etiladigan masalalar yuzasidan yozma ravishda viloyat hokimiga takliflar hamda haftalik hisobotlarni kiritib borish.

Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yuzasidan
“Qashqadaryo viloyati tajribasi”ni yaratish bo’yicha
VILOYAT SHTABINING TARKIBI

T/r	Shtab a’zosi F.I.Sh.	Lavozimi
1.	A.Qodirov	viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari, <i>shtab rahbari</i>
2.	A.Mirzoyev	viloyat prokurorining o’rinbosari, <i>shtab rahbarining o’rinbosari</i>
3.	D.Imomov	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi, <i>shtab kotibi</i>
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va harbiy soha tashkilotlari		
4.	N.Sobirov	viloyat prokuraturasi murojaatlar bilan ishlash bo’limi boshlig’i
5.	Sh.Muslimov	viloyat IIBB murojaatlar bilan ishlash bo’limi mas’ul xodimi
6.	O’.Uzakov	viloyat sudi mas’ul xodimi
7.	O’.Azimov	viloyat adliya boshqarmasi mas’ul xodimi
8.	A.Fayziyev	Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash sho’basi inspektori
9.	G.Dilmurodova	Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi katta inspektori
Iqtisodiyot soha tashkilotlari		
10.	J.Nazarov	viloyat soliq boshqarmasi murojaatlar bo’limi boshlig’i
11.	A.Qodirov	viloyat kambag’allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining tashkiliy-nazorat shu’basi (murojatlar bo’limi) boshlig’i
12.	I.Quvvatov	Savdo-sanoat palatasining ijro intizomi bo’limi bosh mutaxassisi
13.	T.Qulmurodov	Budjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi viloyat boshqarmasining murojaatlar bilan ishlash bo’yicha mas’ul xodimi
14.	N.Eshquvatov	viloyat Markaziy bank bosh boshqarmasi murojaatlar

		bilan ishlash bo'limi boshlig'i
15.	Sh.Jonqulova	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul xodimi
16.	Sh.Xo'jayev	Mahallalar uyushmasining viloyat boshqarmasi tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil bo'yicha bosh mutaxassisi
Qurilish sohasi tashkilotlari		
17.	K.Karaseva	viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
18.	I.Xalilov	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish mutaxassisi
19.	H.Yuldoshev	"Hududgaz" ta'minot AJ viloyat filiali mas'ul xodimi
20.	D.Uzoqmurodov	"Qashqadaryo viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi ma'sul xodimi
21.	S.Husanov	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ viloyat filiali mas'ul xodimi
22.	Sh.Eshonxonov	"Qashqadaryo suv ta'minoti" AJ murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi boshlig'i
23.	X.Nasrullayev	viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bosh mutaxassisi
Qishloq xo'jaligi sohasi tashkilotlari		
24.	K.To'xtamesheva	viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi boshlig'i
25.	N.Aminova	"Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari va havza boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi boshlig'i
26.	S.Maxmadiyorova	"O'zdavrerloyiha" instituti viloyat bo'linmasi murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi boshlig'i
Ijtimoiy soha tashkilotlari		
27.	M.Jalilova	viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi nazorat-tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'ba rahbari
28.	V.Primov	viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash va ijro bo'limi bosh mutaxassisi
29.	T.Ozodov	Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash sho'basi bosh mutaxassisi

30.	G.Omonova	viloyat madaniyat boshqarmasi bosh mutaxassisi
-----	-----------	--

Izoh: ushbu shtab a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Qashqadaryo viloyati hokimining
2026-yil 25-apreldagi
39-4-0-F/26-son farmoyishiga
4-ilova

**Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi yuzasidan
“Qashqadaryo viloyati tajribasi”ni yaratish bo‘yicha
VILOYAT SHTABINING VAZIFALARI**

1. Viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlarida kelib tushayotgan aholi murojaatlarini o‘z vaqtida ro‘yxatga olish va ijrosini ta‘minlash jarayonlarini doimiy ravishda nazorat qilish va monitoringini yuritish hamda ularning natijalarini tahlil qilib borish.

2. Muntazam ravishda aholi murojaatlari bilan ishlash va ularni hal etish ishlarini tashkillashtirish, aholi murojaatlarida ko‘tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etilishini ta‘minlash bo‘yicha tuman (shahar)lar shtablari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga zarur uslubiy va amaliy yordamlarni ko‘rsatib borish.

3. Takroriy va jamoaviy murojaatlar, shuningdek uzoq vaqtdan buyon hal etilmayotgan murojaatlarni hamda ularda ko‘tarilgan muammoli masalalarning hal etilishini alohida nazoratga olish.

4. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi hamda boshqa manbalardan kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash faoliyatini (shu jumladan, rad etilgan, ijro muddatlari buzilgan hamda takroriy kelib tushgan murojaatlarni) bevosita joyiga chiqqan holda o‘rganish va tahlil qilish orqali ularning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan mansabdor shaxslarga tegishli takliflar kiritish.

5. Viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy nizom talablariga rioya etilishini nazorat va monitoring qilish.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy nizom talablari asosida viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlari rahbarlarining ishlab chiqilgan jadvallar asosida shaxsiy, sayyor va ommaviy qabullarni o‘z vaqtida o‘tkazish borilishini tashkillashtirish hamda nazorat qilib borish.

Bunda shaxsiy, sayyor va ommaviy qabul qilish jadvali va uni o‘tkazish vaqti, joyi hamda qabulga oldindan yozilish to‘g‘risidagi axborot, qabul qilish tartibi

kabilarni tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida o'z vaqtida e'lon qilish, shuningdek, ularning ma'muriy binosida hamma kirishi mumkin bo'lgan joylardagi stendlarga yoki boshqa texnik vositalarga joylashtirish orqali manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish, shuningdek bu haqda "mahalla yettilik"lari tomonidan bir hafta oldin aholi o'rtasida targ'ibot ishlari olib borilishini tashkil etish.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari, davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash faoliyatini baholash va toifalash to'g'risida"gi nizom talablari asosida viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlari faoliyatini baholash va toifalash natijalarini tanqidiy tahlil qilib borish hamda ularni o'rta va past natijadorlikka ega bo'lgan tashkilotlarni yuqori natijadorlikka erishilishini ta'minlash yuzasidan takliflar tayyorlash.

8. Muntazam ravishda viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlari rahbarlari hamda mas'ul xodimlariga aholi murojaatlari bilan ishlash, shu jumladan ularni ko'rib chiqish hamda hal etish tartib-taomillarini tushuntirish yuzasidan o'quv seminarlarini tashkil etib borish.

9. Har haftada kamida bir marotaba aholi murojaatlari ko'payib borayotgan, ularni ijobiy hal etish choralarini ko'rmayotgan hamda ko'rib chiqish yuzasidan qonunchilikda belgilangan muddatlarning buzilishiga yo'l qo'yilayotgan mutasaddi viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlarida murojaatlar bilan ishlash tizimini tanqidiy o'rganishlarni amalga oshirish hamda uning natijalari asosida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan mas'ullarga nisbatan intizomiy yoki ma'muriy jazolarni qo'llash yuzasidan viloyat hokimiga takliflar kiritib borish.

10. Har hafta yakunida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammo va kamchiliklar hamda ularni hal etishga qaratilgan takliflar o'z aksini topgan haftalik hisobotlarni, shuningdek murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilgan holda viloyat va respublika darajasida hal etiladigan masalalar yuzasidan yozma ravishda viloyat hokimiga takliflarni kiritib borish.

11. Muntazam ravishda viloyat va tuman (shahar)lar tashkilotlarida rahbarlar hamda mas'ul xodimlar o'rtasida murojaat qiluvchilarga, shuningdek shaxsiy, sayyor va ommaviy qabullarda aholi vakillariga nisbatan xushmuomalali, vazmin va e'tiborli, shaxsning sha'nini kamsitmasligi, mehribon bo'lishi shartligini tushuntirish ishlarini olib borish.